IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

MIR ARAB OLIY MADRASASI TARIXIGA BIR NAZAR

Muallif	**Abdullayev Zohidjon**
O'qish yoki ish joyi	**Namangan Davlat Universiteti, Tarix Yo'nalishi Talabasi**
Qabul qilindi	**23.09.2023**
Nashr qilindi	**23.09.2023**

Annotatsiya
Maqolada Buxoro viloyatida joylashgan Mir arab madrasasi tarixi, uning faoliyati, hozirgi kundagi holati, o'qitish tizimlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar
Madrasa, diniy bilimlar, xon, hukumronlik, vaqf jamg'armasi, mudarris, mutavalli.

Qadimdan Buxoro o'zining ko'plab madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Narshaxiyning fikricha, 937 yilgi yong'indan zarar ko'rgan "Forjak" madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardan sanalgan. Abu Hafs Kabir Buxoriy ham Buxoroda ilmiy va diniy bilimlar rivojiga katta hissa qo'shgan madrasaga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Sharqda ham mashhur edi. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o'tagan.

Muhammad Ali Baljuvoniyning ma'lumotiga ko'ra, XX asrning boshlariga kelib, Buxoroda madrasalar soni 400 ga yaqin bo'lgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan.

Shunday madrasalardan biri Miri Arab madrasasi hisoblanib, uni 1530-1536 yillarda Buxoro xoni, mumtoz shoir Ubaydullaxon (1510-1539/40 yillarda hukmronlik qilgan) in'om etgan mablag' hamda ko'plab vaqf mulklari hisobiga Shayx Abdulloh (Miri Arab) qurdirgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan I-323-jamg'armadagi vaqf hujjatida ham 1527 yil madrasa uchun ajratilgan ko'p sonli dehqonchilik yer maydonlari, butun qishloqlar va boshqa mol-mulklar birma-bir sanab berilgan. Miri Arab madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmay, 1536 yil boshida vafot etadi. Vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan. Shu tariqa madrasa oliy o'quv dargohi sifatida mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma'rifatparvarlarni yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan. Sadri Ziyo(1865-1932 yy.)ning ma'lumotiga ko'ra, Shohmurod Miri Arab madrasasining bitta hujrasida kecha-kunduz riyozat chekib ilm olish bilan shug'ullangan va xalq orasida "Amir Jannatmakon" laqabi bilan tanilgan. Amir Haydar ham shu yerda tahsil olgan. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etgan. Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o'z

mutavallisi bo‘lgan. Mutavalli xodim va talabalarga to‘lanadigan haq, vaqf yerlarida ishni tashkil etish, mardikorlar yollash, ijarachilar va hissadorlar bilan shartnoma tuzish, do‘konlar, tegirmonlar va madrasaning vaqf mulkiga kiruvchi boshqa obyektlardan ijara haqini undirish va undan boshqa ishlarga mas’ul bo‘lgan. Shuningdek, madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ozuqalik don hisobidan ajratilgan.

Mutavalliga madrasadagi xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar (o‘qituvchi- mudarrislardan tashqari) faoliyatini, ayrim hollarda esa talabalarning darsga qatnashish davomatlarini nazorat qilib turish yuklangan. Uning lavozimi otadan bolaga meros tariqasida o‘tishi yo‘lga qo‘yilgan. Vaqf daromadlari madrasa talabalari, mudarrislar, mutavalli va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar o‘rtasida shariat ko‘rsatmalari asosida taqsimlangan. Madrasadagi talabalar soni va ularning o‘qish muddati madrasa daromadiga bog‘liq bo‘lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan.

O‘quv yili oxirida talabalar o‘tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma – diplom berilgan. Hatto a’lo baholarda o‘qigan talabalar amir tomonidan turli sovg‘a va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan. Masalan, qo‘shrabotlik talaba Kamoliddin Miri Arab madrasasini a’lo baholar bilan yakunlagach, unga amir Abdulahad sarupo kiygizib, “Qur’oni karim" va “Al-Jome’ as-sahih"kitoblarini sovg‘a qilib saroyda ishlashga taklif etgan.

Miri Arab madrasasida uzoq yillar davomida tahsil olib, bosh mudarrislik lavozimigacha ko‘tarilgan Ahmadxon ibn Ismoilxon ham amirning buyrug‘iga binoan dahyak olgan. Bundan tashqari, O‘zR MDAdagi “Qushbegi fondi"da yuz nafar a’lo bahoga o‘qiydigan talabalarni taqdirlash uchun muftining amirga yozgan arizasi saqlanmoqda. Fond hujjatlari bilan tanishganda amir “ziyoratchilari"ning ro‘yxatlari ham saqlanishi aniqlandi. Ushbu hujjatlar Sadriddin Ayniyning: “Miri Arab madrasasidagi “ziyoratchi" talabalar madrasada yashab, har kuni tongda amir saroyidagi “Mehmonxonai Rahimxoniy"ga o‘tirib Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) haqlariga salavot va duolar o‘qib qaytganlar. Ular davlatdan har oy 30 tanga maosh olishgan. Bundan tashqari, har kun bitta non va mayiz olishgan", degan fikrini isbotlaydi. Madrasaga asosan maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. E.K.Meyendorf, N.P.Ostroumov, N.V.Xanikov, P.I.Demezon, T.M.Aminov, V.L.Benin, D.N.Logofetlar tadqiqotlarida madrasada ta’lim 10 yildan 30 yilgacha bo‘lishi va darslarda qaysi fanlar o‘qitilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo‘lingan. A’lo (oliy), avsat (o‘rta) va adno (quyi). Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, madrasada haftada to‘rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya’ni, yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan.

Hozirgi kunga kelib Miri Arab madrasasida 4 yil davomida diniy fanlar bilan bir qatorda umumta’lim fanlari ham o‘qitiladi. Bilim yurtida 30 nafar ma’lumoti oliy va malakali o‘qituvchi-mudarrislar 130 ga yaqin talabalarga dars berib kelmoqdalar. Madrasada talabalarning ilm olish va yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bilim yurti talabalari kompyuter xonasi, fan kabinetlari va madrasa kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy boy madaniy va ma’naviy merosimiz

hisoblangan qo‘lyozma va toshbosma kitoblardan foydalanadilar. Uzoq tuman va boshqa viloyatlardan kelgan talabalar yotoqxona bilan ta’minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asrorova L. Q.. *Buxoro madrasalari tarixidan*. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017 — 224 bet. ISBN 978-9943-4818-6-2.
2. Bobojonova F.. *Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida)*. Toshkent: Adib, 2014 — 128 bet.
3. Jumanazar A.. *Buxoro ta’lim tizimi tarixi*. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592 bet. ISBN 978-9943-4728-2-2.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, *1*(2), 5-10.
5. Хакимов, С. (2023). ПОВТОРНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДЫ В АВТОМОЙКАХ ПУТИ МАРШРУТИЗАЦИИ. *ТЕСНика*, (1 (10)), 1-5.
6. Хакимов, С., & Тургунбаева, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ЯПОНИИ, США И ГЕРМАНИИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 17-19.
7. Кодирова, Ф., Хакимов, С., & Турғунбаева, М. (2023). ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННЫМ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИОННЫМ СТРОИТЕЛЬНЫМ МАТЕРИАЛАМ. *ТЕСНика*, (2 (11)), 5-9.
8. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, *11*(1), 71-79.
9. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
10. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, *10*(2), 14.
11. Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, *1*(C7), 223-226.
12. Yuldashev, S., & Xakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, *1*(A5), 376-379
13. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(2), 30-36.
14. Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЪЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 806-809.